

EKOLOGIYA NIMA? EKOLOGIK MUAMMOLAR. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI EKOLOGIYA

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Davolash ishi fakulteti

227- guruh talabasi

Maxmudova Asal Djamshedovna

E-mail: asalyamakhmudova21@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ekologiya haqida umumiy va to'liq ma'lumotlar, Ekologiya tarixi va evolyutsiyasi. Ekologiyaning muammolari. Uni yechish usullari. O'zbekiston Respublikasidagi ekologiya. Uning muammolari. Ekologiyaning rivojlanib kelishi. Ekologiya bilan shug'ullanuvchi partiya haqida ma'lumotlar to'liq yoritiladi.

Kalit so'zlar: Ekologiya, Ekologiya tarixi, Ekologiyaning evolyutsiyasi, Ekologiyaning global muammolari.

Kirish: Ekologiya — organizmlarning bir-birlari va tashqi muhit (abiotik omillar) bilan bo'lgan o'zaro munosabatlarini hamda ularning tarqalishini o'rganuvchi fan bo'lib, organizmlarning yashash sharoitlari, tabiatdagi turli ekotizimlarning tuzilishi va faoliyatini tahlil qiladi. Bu fan inson faoliyatining tabiatga ta'sirini ham o'rganadi, biologik xilma-xillikni saqlash hamda barqaror yechimlarni ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi.

Obyekti: Tirik organizmlar (biotik omillar) va ularning yashash muhiti (abiotik omillar), masalan: iqlim, tuproq, suv.

Ma'nosi: "Ekologiya" so'zi yunoncha "ekos" (uy, maskan) va "logos" (fan, ta'limot) so'zlaridan olingan bo'lib, "uy fan" yoki "maskan ta'limoti" degan ma'noni anglatadi.

Umumiy ekologiya organizmdan yuqori turadigan har xil sistemalarning tuzilishi va funksiyasini o'rganadi. U populyatsiyalar ekologiyasi, biotsenologiya ekosistemalar ekologiyasi kabi bo'limlardan

iborat. Populyatsiyalar ekologiyasi populyatsiyalarining strukturasi va miqdoriy dinamikasining umumiy qonuniyatlari hamda har xil turlar populyatsiyalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar (raqobat, yirtqichlik) ni tadqiq qiladi. Biotsenologiya (hamjamoalar ekologiyasi) biotsenozlarning tuzilishi qonuniyatlari, tarkibi va funksiyasini o'rganadi

Xususiy ekologiya muayyan taksonomik guruhga mansub

organizmlarning muhit sharoitiga munosabatlari majmuini o'rganadi (masalan, hasharotlar ekologiyasi). Ba'zan xususiy ekologiyaga muayyan ekosistema va hamjamoani o'rganadigan fan sifatida ham qaraladi (mas, qishloq xo'jaligi ekosistemalari ekologiyasi – agroekologiya; o'simliklar hamjamoalari ekologiyasi – fitotsenologiya). Suv ekosistemalari va suv organizmlari ekologiyasini o'rganadigan gidrobiologiya ham ekologiyaning bir qismi hisoblanadi. Ekologiya autekologiya (har xil muhit omillarining alohida turlarga ta'sirini o'rganadigan fan) va sinekologiya (organizmlar va ular majmualari o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadigan fan) ga ham ajratiladi

Ekologiya terminini 1866-yil nemis olimi ekologiya E. Gekkel organizmlarning atrof muhit bilan munosabatlarini belgilash uchun taklif etgan. Ekologiyaning fan sifatida yuzaga chiqishi XVIII—XIX asrlarda yashagan naturalistlar va geograflarning ishlari bilan bog'liq. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida tadqiqotchilar ayrim omillar, ayniqsa, iqlimning organizmlarning tarqalishi va dinamikasiga ta'sir etishiga e'tibor berishdi. Ayni shu davrda organizmlarning bir butun majmui bo'lgan tabiiy biotsenozlar to'g'risidagi tasavvurlar shakllana boshlaydi. Ekologiya XX asrning 20-30-yillarida jadal rivojlana boshladi. Bu davrda amerika zoologi Ch. Elton 1930-yilda populyatsiyalar va jamoalarni o'rganishning asosiy vazifalarini ko'rsatib berdi; italiyalik va amerikalik matematiklar V. Volterra va A. Lotka populyatsiyalarning o'sishi, o'zaro ta'sirining matematik modellarini taklif etishdi; rus mikrobiologi G. F. Gauze bu modellarni tajribada sinab ko'radi. Xuddi shu davrda gidrobiologlar tirik organizmlar orqali moddalar va energiya o'zgarishini miqdoriy jihatdan o'rganish boshlanadi. Bir-biri va notirik atrof muhit bilan o'zaro bog'langan organizmlar komplekslari to'g'risidagi tasavvurlarning shakllanishi ingliz botanigi A. Tenslining „ekosistema“ (1935) va rus botanigi V. N. Sukachevning „biogeotsenoz“ (1942) tushunchalarining yaratilishi bilan bog'liq.

20-asrning 50-yillarida umumiy ekologiya shakllanadi. Tadqiqotchilarning asosiy ishlari organizmlar va ular hosil qiladigan sistemalarning o'zaro ta'sirini o'rganishga qaratiladi. Ekologiya tadqiqotlarida miqdoriy metodlar keng tarqala boshlaydi; laboratoriya va tabiatda o'tkaziladigan tajribalar hamda matematik modellashtirishlar keng qo'llanila boshlanadi.

Havo tarkibida karbonat angidridning oshishi, chiqindi gazlarning me'yoridan ortiq havoga chiqarib tashlanishi oqibatida issiqxona effekti hosil bo'lib, bugungi kunda jahon hamjamiyatini tashvishga solayotgan jiddiy ekologik muammo-global iqlim o'zgarishi yuzaga keldi.

Aholi sonining o'sishi, fan va texnika taraqqiyoti, inson ehtiyojlarining

ortishi oqibatida er yuzida qator ekologik muammolar yuzaga keldi. Shu bois, bugungi kunda sof tabiat haqida gap yuritish mushkul. Er yuzidagi o'rmonlar ko'payish o'rniga tobora qisqarib bormoqda, katta-katta tabiiy hududlar dehqonchilik qilish maqsadida o'zlashtirildi, tabiat va havo har xil chiqindi hamda gazlar hisobiga ifloslanyapti. Bundan tashqari, tabiatda toshqinlar, o'rmon yong'inlari, chang bo'ronlari va boshqa tabiiy jarayonlar yuz bermoqda. Bularning barchasi pirovardida tabiat muvozanatiga putur etkazyapti. Shu bois, davlatimiz rahbari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida jahon hamjamiyati e'tiborini yana bir bor davrimizning o'tkir muammolaridan biri -Orolbo'yi hududidagi ekologik holatga qaratib, jumladan, bunday dedi: "Bugungi kunda har bir mamlakat bu jarayonning salbiy ta'sirini his etmoqda. Ming afsuski, bunday o'zgarishlar Markaziy Osiyo taraqqiyotiga ham katta xavf tug'dirmoqda".

Butun mamlakat miqyosida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida daraxtlarni ekish va parvarish qilish sohasidagi boshqaruv tizimini takomillashtirish, ilmiy yondashuvlar asosida hududlarning tuproq-iqlim va boshqa xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqot va tahlillarni amalga oshirish hamda buning natijasida hududlar kesimida respublika xaritasini ishlab chiqish, ko'chatxonalar sonini ko'paytirish shular jumlasidan.

Farmon bilan davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxt va butalar qimmatbaho navlarining kesilishiga moratoriyning amal qilishi muddatsiz davrga uzaytirildi. Moratoriy talablarini buzganlik uchun ma'muriy jarimalar miqdori besh barobar, o'simlik dunyosiga yetkazilgan zarar summolari ikki barobar oshirildi.

O'zbekistondagi ekologiya sohasi, asosan, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan boshqariladi va u havo, suv, yer, o'simliklar va hayvonot dunyosini muhofaza qilish, chiqindilar bilan ishlash, ekologik ekspertiza o'tkazish, ekologik ta'lim berish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish kabi vazifalarni amalgaoshiradi, shu jumladan, "Davlat ekologik ekspertizasi markazi" va "Eko-Media" kabi muassasalar orqali faoliyat yuritadi.

2018-yil 14-noyabrda O'zbekiston Ekologik partiyasi mamlakatda tabiiy resurslarni tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish, davlat va jamiyat hayoti uchun muhim ustuvor yo'nalish hisoblangan ekologik siyosat bilan shug'ullanuvchi partiya tuzish bo'yicha shakllantirilgan 100 nafardan iborat tashabbuskor guruh tomonidan chaqirilgan.

2019-yil 8-yanvarda bo'lib o'tgan partiya forumida ta'sis etilgan. O'sha forumning o'zida partiyaning Ustavi va Dasturi loyihalari, Markaziy Kengashi a'zolarini saylash, Markaziy nazorat taftish komissiyasi to'g'risidagi Nizomi, Matbuot organini ta'sis etish, hamda partiyaning vakolatli vakillarini saylash

kabi masalalar ko‘rib chiqilgan.

2019-yil 22-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatga olingan.

Maqsadi: Mamlakatimizning barqaror rivojlanishiga, ekologik xavfsizligiga erishish, hozirgi va kelajak avlod uchun qulay atrof-muhitni yaratish hamda tabiiy resurslarni saqlashga yo‘naltirilgan davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishni ta‘minlash hamda atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslarni saqlash davlat, jamiyat va mamlakat har bir fuqarosining vazifasi bo‘lishiga erishishga ko‘maklashishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. To‘xtayev A., Ekologiya, Toshkent, 2000
2. Ahmadqul Ergashev, Ochil Mavlonov.
3. Ergashev A. Umumiy ekologiya, Toshkent, 2003.
4. Ergashev.A. Agroekologiya.